



HOUSEHOLD BUDGET PLANNING BASED ON DIGITAL FINANCIAL LITERACY PLATFORMS

Rahimov Doniyorbek Ollayorovich

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Abstract

The effect of platforms aimed at increasing digital financial literacy on household budget formation and management is analyzed scientifically, theoretically and empirically. The study revealed the content of the concept of digital financial literacy and revealed the impact of mobile applications, online learning platforms and fintech services on household incomes, savings and expenditure structure. The results of the empirical analysis indicate that budget planning, savings share, and financial discipline improve as the degree of digital financial literacy increases. As a result of the research, scientific and practical recommendations were developed.

Keywords: Digital financial literacy, household budget, fintech, financial platforms, savings, income and spending.

Introduction

Globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish masalasi uy xo'jaliklari barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi moliyaviy platformalar aholining moliyaviy xulq-atvorini o'zgartirib, byudjetni rejalashtirish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy qarorlarning samaradorligi bevosita moliyaviy savodxonlik darajasiga bog'liq bo'lib, raqamli muhitda bu tushuncha yanada murakkablashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020-yilda aholini moliyaviy bilim bilan ta'minlash maqsadida Finlit.uz axborot-ta'lim portalini ishga tushirdi, bu platforma orqali moliyaviy xizmatlar, byudjet rejalashtirish va raqamli moliya tushunchalari bo'yicha keng auditoriya uchun ilmiy asoslangan resurslar taqdim



etiladi. Shuningdek, 2021-yilda tasdiqlangan Moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish bo'yicha Milliy strategiya (2021–2023) , O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasi mamlakatda moliyaviy savodxonlikning tizimli shakllanishi va moliyaviy inklyuziya yo'lida muhim hujjat bo'lib xizmat qildi. 2025-yilda esa "Global Money Week" kabi xalqaro moliyaviy savodxonlik kampaniyalari doirasida yoshlar va keng jamoatchilik uchun raqamli moliyaviy ko'nikmalarni oshirish bo'yicha faol tadbirlar o'tkazildi. "mamlakatda raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlash va aholining raqamli ko'nikmalarini oshirishni hukumat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan hujjatdir. Ushbu strategiya doirasida raqamli xizmatlar, shu jumladan moliyaviy texnologiyalar aspektida aholining raqamli savodxonligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish platformalarining uy xo'jaliklari byudjetiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

- raqamli moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash;
- raqamli moliyaviy platformalar turlarini tizimlashtirish;
- uy xo'jaliklari byudjeti strukturasiga ularning ta'sirini empirik tahlil qilish;
- ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Raqamli moliyaviy savodxonlik – shaxslarning raqamli muhitda moliyaviy xizmatlardan ongli, xavfsiz va samarali foydalanish qobiliyatidir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha an'anaviy moliyaviy savodxonlikka nisbatan kengroq talqin qilinib, unda raqamli ko'nikmalar, axborot xavfsizligi va moliyaviy texnologiyalarni anglash muhim komponent sifatida qaraladi [1].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan uy xo'jaliklarida moliyaviy risklarni baholash, byudjetni rejalashtirish va jamg'arma qilish madaniyati yaxshiroq shakllanadi [2].

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy islohotlar doirasida raqamli iqtisodiyot va moliyaviy xizmatlar savodxonligini oshirish muhim yo'nalishlardan biri ekanini qayd etgan. 2025-yil 10-sentyabrda fintech sohasini rivojlantirish va banklarda raqamli xizmatlarni kengaytirishga oid topshiriqlar bergan bo'lib, bu chora-tadbirlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni yengillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.



2025-yil 11-iyunda moliyaviy barqarorlik bo'yicha kengash tashkil etilishi e'lon qilinib, Markaziy bank huzurida fintech va raqamli moliyaviy tizimlar uchun maxsus platformalar yaratish rejalashtirilgani bildirildi bu mamlakatda raqamli moliyaviy savodxonlikni kengaytirish uchun huquqiy va institutsional asoslar yaratishga xizmat qiladi [3].

Bugungi kunda moliyaviy savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi raqamli platformalarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- mobil ilovalar (byudjet rejalashtiruvchilar, xarajatlarni kuzatuvchi ilovalar);
- onlayn kurslar va ta'lim platformalari (moliyaviy bilimlarni oshirishga qaratilgan interaktiv kurslar);
- fintech xizmatlar (raqamli banklar, elektron to'lov tizimlari, investitsiya platformalari).

Mazkur platformalar foydalanuvchilarga real vaqt rejimida daromad va xarajatlarni tahlil qilish, moliyaviy maqsadlarni belgilash va jamg'arma mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi [4].

Uy xo'jaliklari byudjeti asosan uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: daromadlar, xarajatlar va jamg'armalar. Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy savodxonlik platformalaridan muntazam foydalanish:

- daromadlarni diversifikatsiya qilishga;
- ortiqcha va samarasiz xarajatlarni qisqartirishga;
- jamg'arma ulushini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Empirik tahlil natijalari (so'rovnoma va kuzatuv ma'lumotlari asosida) raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi bilan uy xo'jaliklari byudjetining barqarorligi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi. Sabab-oqibat bog'liqligi shundan iboratki, raqamli platformalar moliyaviy intizomni kuchaytirib, ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishni rag'batlantiradi. Natijada uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi [4].

Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish platformalari uy xo'jaliklari byudjetini samarali boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning keng joriy etilishi aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltiradi hamda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar:

- aholi uchun bepul raqamli moliyaviy savodxonlik platformalarini rivojlantirish;
- moliyaviy ta'limni uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiya qilish;



– fintech xizmatlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish aholida moliyaviy savodxonlikni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lusardi A., Mitchell O.S. The economic importance of financial literacy // Journal of Economic Literature. – 2014. – Vol. 52, №1. – P. 5–44.
2. OECD. Digital financial literacy framework. Paris: OECD Publishing, 2020.
3. Markaziy bank. Finlit.uz: Financial literacy platform [Elektron resurs]. – Kirish manzili: https://cbu.uz/en/press_center/news/2690688/?utm_source
4. Atkinson A., Messy F. Measuring financial literacy. OECD Working Papers, 2012.
5. Klapper L., Lusardi A., van Oudheusden P. Financial literacy around the world. World Bank, 2015.
6. Gozibekov D. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №3. – P. 45–52.
7. Hasanov R. Fintech va uy xo'jaliklari moliyasi // Moliyaviy tahlil. – 2022. – №2. – P. 33–40.